

48

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti rektori

X.B. Yunusov

2024-yil “02” 08



**YOSH HAYVONLAR VA PARRANDALAR TERAPIYASI**

**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 800000 – Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya

**Ta’lim sohasi:** 840000 – Veterinariya

**Mutaxassislik:** 70840101 – Hayvonlarga tashxis qo‘yish va davolash

Samarqand - 2024

|                            |  |                                  |              |                              |                     |
|----------------------------|--|----------------------------------|--------------|------------------------------|---------------------|
| Fan/modul kodi<br>YHPT1206 |  | O'quv yili<br>2024-2025          | Semestr<br>2 | ECTS – Kreditlar<br>6        |                     |
| Fan/modul turi<br>Majburiy |  | Ta'lim tili<br>O'zbek            |              | Haftadagi dars soatlari<br>6 |                     |
| 1.                         | Fanning nomi   | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) |              | Mustaqil ta'lim (soat)       | Jami yuklama (soat) |
|                            | Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi   | 90                               |              | 90                           | 180                 |
| 2.                         | I. Fanning mazmuni   |                                  |              |                              |                     |
|                            | <p>Fanni o'qitishdan maqsad - “Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi” fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda yosh hayvonlar organizmining o'ziga xos anatomo - fiziologik xususiyatlarini o'rganish, nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining asosiy sabablarini aniqlash, kasallikning rivojlanish mexanizmini bilish, kasallikka ertachi tashxis qo'yish hamda ilmiy asoslangan holda davolash va oldini olish usullarini qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, yosh hayvonlar organizmining o'ziga xos anatomo - fiziologik xususiyatlarini ochib berish, yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining turlari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi, simptom va sindromlari, tashxis qo'yishda informativ ma'lumot beruvchi gemotologik testlarning ahamiyati hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Yosh hayvonlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</b></p> <p>Yosh hayvonlar postnatal taraqqiyotidagi bosqich va davrlar to'g'risida tushuncha. Yosh hayvonlarda yurak qon - tomir va nafas tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari. Yosh hayvonlarda hazm tizimidagi o'ziga xoslik. Yosh hayvonlarda modda almashinuvidagi o'ziga xoslik. Yosh hayvonlar organizmining immun himoyasi va tabiiy rezistentlik.</p> <p><b>2-mavzu. Yosh hayvonlarni klinik tekshirish usullari.</b></p> <p>Anamnez, uning turlari va mohiyati. Yosh hayvonlarning hayoti to'g'risidagi anamnez (a.vitae). Yosh hayvonlarning kasalligi to'g'risidagi anamnez (a.morbi). Yosh hayvonlarni klinik ko'rikdan o'tkazish turlari va tartibi. Umumiy tekshirish</p> |                                  |              |                              |                     |

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "7184010" - Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash" mutaxassislari uchun "Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" fanidan tayyorlangan Dasturga

### TAQRIZ


"O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislari tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qorovonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejasiga va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar ishtirokchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislarning yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Kredit-modul tizimiga asoslangan mazkur fan dasturida eng avvalo modulning aud. o'quv yili, qaysi semestrda o'tilishi, kredit miqdori, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va jami soatlarda aks ettirilgan, fanning mazmuni, asosiy nazariy qism, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, fan o'qitilishining natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari, kadrlar o'qish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Shuningdek dasturda yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining sabablari, rivojlanish mexanizmi, simptom va sindromlari, patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxis hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullar, hayvonlarning va mavzularning ketma-ketligiga e'tibor berilgan.

"Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" fanidan fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi, hozirgi kundagi me'yoriy nujatlarga mos kelishini inobatga olib, uni tashdiqlashga va o'quv jarayoniga joriy etishga tavsiya qilaman.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,  
4-ichki kasalliklar kafedrasida  
katta o'qituvchisi, PhD





**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti**  
**"70840101 - Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash" mutaxassisligi uchun**  
**"Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi"**  
**fanidan tayyorlangan Dasturga**

**TAQRIZ**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PQ-2959-sonli "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qorolarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida o'quv rejalar va dasturlar, fanlar mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, kadrlar iste'molchilari hamda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining yangi o'quv-metodik komplekslarini yaratish hamda amaliyot uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ularning bilim va ko'nikmalarini tubdan shakllantirish belgilangan.

Kredit-modul tizimiga asoslangan mazkur fan dasturida eng avvalo modulning kodi, o'quv yili, qaysi semestrda o'tilishi, kredit miqdori, auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim va jami soatlarda aks ettirilgan, fanning mazmuni, asosiy nazariy qism, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, fan o'qitilishining natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari, kreditlar olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati kiritilgan.

Dasturda yosh hayvonlar organizmining o'ziga xos anatomo - fiziologik xususiyatlarini, yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining kelib chiqish sabablarini, rivojlanish mexanizmini, simptom va sindromlarini, tashxis qo'yishda informativ ma'lumot beruvchi gemotologik testlarning ahamiyatini hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini o'rganish to'liq aks ettirilgan.

"Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi" fanidan fan dasturi kredit-modul tizimiga asoslangan Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, O'quv rejasiga muvofiq tayyorlanganligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlanganligi hamda hozirgi kundagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni tashdiqlashga va o'quv jarayoniga joriy etishga tavsiya qilaman.



**ITI direktori, v.f.d., professor**

**B.A.Elmuradov**

usullari (ko'zdan kechirish, kuzatish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya va termometriya usullari).

**3-mavzu. Yosh hayvonlarni tizim va a'zolar bo'yicha tekshirish usullari.**

Yosh hayvonlarda yurak va qon tomirlar tizimini tekshirish usullari: anamnez ma'lumotlarini to'plash; hayvonni umumiy ko'zdan kechirish; yurak sohasini ko'zdan kechirish, paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usullari bilan tekshirish; qon tomirlarini tekshirish; elektrokardiografiya; qon bosimini o'lchash; qonning harakat tezligini aniqlash; funksional tekshirishlar o'tkazish. Yosh hayvonlarda nafas tizimini tekshirish usullari. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimini tekshirish usullari.

**4-mavzu. Yosh hayvonlarni tizim va a'zolar bo'yicha tekshirish usullari (davomi).**

Yosh hayvonlarda ayirish tizimini tekshirish usullari: anamnez ma'lumotlarini to'plash; siydik chiqarishni tekshirish; buyrakni tekshirish; siydik yo'llarini tekshirish; qovuqni tekshirish; tashqi siydik kanalini tekshirish. Yosh hayvonlarda qon tizimini tekshirish usullari: qonning fizik xossalarini aniqlash; qonning morfologik ko'rsatkichlarini aniqlash; qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash. Yosh hayvonlarda asab tizimini tekshirish usullari. Yosh hayvonlarda sezgi a'zolarini tekshirish usullari.

**5-mavzu. Maxsus tekshirish usullari.**

Rentgen tashxisi - kasallikka rentgen nurlaridan foydalangan holda tashxis qo'yishga qaratilgan tekshirish usuli. Elektrokardiografiya - yurak muskul qavatining qo'zg'alish va qisqarishlari paytida hosil bo'ladigan bioelektrik toklar potensiallari farqini yozib olish usuli. Plegafoniya - bronx, o'pka va plevraning tovushni o'tkazish xususiyatini aniqlashga asoslangan usul. Torakotsentez - ko'krak qafasidan suyuqlik olib tekshirishga asoslangan usul. Pnevmoografiya. Ultratovushli tashxis usuli.

**6-mavzu. Tug'ruq patologiyasi asoratlari.**

Yosh hayvonlarda O'tkir gipoksiya va Alimantar gipotrofiyaning ta'rifi, sabablari, rivojlanishi va klinik belgilari. Yosh hayvonlarda O'tkir gipoksiya va Alimantar gipotrofiyaning kechishi, patologoanatomik o'zgarishlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi. Yosh hayvonlarda O'tkir gipoksiya va Alimantar gipotrofiyani davolash va oldini olish usullari.

**7-mavzu. Yosh hayvonlarning nafas tizimi kasalliklari.**

Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarining ta'rifi, sabablari va rivojlanishi. Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarining klinik belgilari. Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarining patologoanatomik o'zgarishlari. Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarining tashxisi. Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**8-mavzu. Yosh hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari.**

Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining klinik

belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining tashxisi. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**9-mavzu. Yosh hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (davomi).**

Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining tashxisi. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**10-mavzu. Yosh hayvonlarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari.**

Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tashxisi. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**11-mavzu. Yosh hayvonlarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari (davomi).**

Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tashxisi. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**12-mavzu. Parrandalar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Nafas tizimi kasalliklari.**

Parrandalar organizmining tuzilishi. Parrandalar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Parrandalar yuqumsiz kasalliklarining tasnifi va sindromlari. Nafas tizimi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi, klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Nafas tizimi kasalliklarining tashxisi, davolash va oldini olish usullari.

**13-mavzu. Parrandalarning ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari.**

Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining tashxisi. Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.

**14-mavzu. Parrandalarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari.**

Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining klinik

8. Safarov M.B., Safarov M.M. Veterinariya diagnostikasi va rentgenologiyasi. Darslik. Toshkent, Sino-standart, 2019.

9. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar kasalliklari. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan ziyosi", 2023.

10. Давлатов Р.Б., Салимов Х.С., Худжамшукуров А.Н. Парранда касалликлари. Ўқув қўлланма. Самарқанд, "Зарафшон", 2018.

11. Петрянкин Ф.П., Петрова О.Ю. Болезни молодняка животных: Учебной пособие для СПО. – Санкт-Петербург: Лань, 2021.

12. Bradford P.Smith, David C. Van Metre, Nicola Pusterla. Large Animal Internal Medicine. Sixth Edition. ELSEVIER. Printed in the United States of America, 2020 by.

**Axborot manbaalari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari Ma'lumotlari milliy bazasi.

3. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz).

4. [www.veterinariya.medsinasi.uz](http://www.veterinariya.medsinasi.uz).

5. [www.sea@mail.net21.ru](mailto:sea@mail.net21.ru).

6. [www.veterinary@actavis.ru](mailto:veterinary@actavis.ru).

7. Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "1"-sonli bayoni bilan maqullangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ul:**  
N.B.Ro'ziqulov – SamDVMChBU, "Ichki yuqumsiz kasalliklar" kafedrasini mudiri, veterinariya fanlari nomzodi, dotsent.

9. **Taqrizchilar:**  
B.A.Elmuradov – VITI direktori, v.f.d., professor.  
T.A.Oqboyev – Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 4-ichki kasalliklar kafedrasini katta o'qituvchisi, PhD



|    |  |
|----|--|
|    | davolashda dori vositalarini to'g'ri tanlash, terapevtik texnika va fizioterapiya usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)  |
| 4. | <b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>   |
| 5. | <b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b><br>Joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.  |
| 6. | <b>Asosiy adabiyotlar</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. Toshkent, "Fan ziyosi", 2021.</li> <li>2. Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi. Darslik. 2-nashr. Toshkent, "Fan ziyosi", 2023.</li> <li>3. Практикум по внутренним болезням животных / Под общ. ред. Г. Г. Щербакова, А. В. Яшина, А. П. Курдеко, К. Х. Мурзагулова: Учебник. — СПб.: Издательство «Лань», 2021.</li> </ol> <b>Qo'shimcha adabiyotlar</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Ma'naviyat" NMIU, 2021 yil.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil.</li> <li>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</li> <li>6. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshbo'riyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, SamDU tahririy-nashriyot bo'limi, 2020.</li> <li>7. Бакиров Б.Б. Хайвонларнинг ички юкумсиз касалликлари. Ўқув қўлланма. Самарқанд, "Оптим прінт плус", 2015.</li> </ol> |

|  |
|--|
| belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tashxisi. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.<br><b>15-mavzu. Parrandalarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari (davomi).</b><br>Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining ta'rifi, sabablari, rivojlanishi. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tashxisi. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish usullari.<br><br><b>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.</b><br><b>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kirish. Yosh hayvonlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari.</li> <li>2. Yosh hayvonlarni umumiy tekshirish tartibi.</li> <li>3. Yosh hayvonlarni tizim va a'zolar bo'yicha tekshirish tartibi.</li> <li>4. Yosh hayvonlarni maxsus usullar yordamida tekshirish tartibi.</li> <li>5. O'tkir gipoksiyani davolash va oldini olish.</li> <li>6. Alimentar gipotrofiyani davolash va oldini olish.</li> <li>7. Bronxopnevmoniyani davolash va oldini olish.</li> <li>8. Dispepsiyaning davolash va oldini olish.</li> <li>9. Uvizli toksikozni davolash va oldini olish.</li> <li>10. Gastroenteritni davolash va oldini olish.</li> <li>11. Qaytalovchi timpaniyaning davolash va oldini olish.</li> <li>12. Bezoar kasalligini davolash va oldini olish.</li> <li>13. Toksik gepatodistrofiyani davolash va oldini olish.</li> <li>14. Cho'chqa bolalari gipoglikemiyasini davolash va oldini olish.</li> <li>15. Retinol yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>16. Askorbin kislotasi yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>17. D gipovitaminozni davolash va oldini olish.</li> <li>18. Tiamin yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>19. Riboflavin yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>20. Piridoksin yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>21. Siankobalamin yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>22. Alimentar anemiyani davolash va oldini olish.</li> <li>23. Enzootik ataksiyaning davolash va oldini olish.</li> <li>24. Gipomagniyemik tetaniyaning davolash va oldini olish.</li> <li>25. Rux yetishmovchiligini davolash va oldini olish.</li> <li>26. Oq mushak kasalligini davolash va oldini olish.</li> <li>27. Endemik buqoqni davolash va oldini olish.</li> <li>28. Parrandalarda nafas tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish.</li> </ol> |
|--|

|  |  |
|--|--|
|  | <p>29. Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish.</p> <p>30. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yosh hayvonlar postnatal taraqqiyotidagi bosqich va davrlar.</li> <li>2. Yosh hayvonlarda yurak qon - tomir tizimining o'ziga xos xususiyatlari.</li> <li>3. Yosh hayvonlarda nafas tizimining o'ziga xos xususiyatlari.</li> <li>4. Yosh hayvonlarda hazm tizimining o'ziga xos xususiyatlari.</li> <li>5. Yosh hayvonlarda modda almashinuvidagi o'ziga xoslik.</li> <li>6. Yosh hayvonlardan olingan qon, siydik va oshqozon suyuqligi namunalari laborator tekshirishning diagnostik ahamiyati.</li> <li>7. Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasining asosiy tamoyillari.</li> <li>8. Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklarini davolash va oldini olishda davolash usullari va vositalarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.</li> <li>9. Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklarini davolash va oldini olishda fizioterapiyaning ahamiyati.</li> <li>10. Yosh hayvonlarda nafas tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>11. Yosh hayvonlarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>12. Yosh hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>13. Yosh hayvonlarda gipovitaminozlarni davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>14. Parrandalarda nafas tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>15. Parrandalarda ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> <li>16. Parrandalarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha ilm-fan yangiliklari.</li> </ol> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> |
|--|--|

|    |  |
|----|--|
|    | <p><b>V. Ilmiy amaliyot (stajirovka)</b></p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p><i>Ilmiy amaliyot (Stajirovka):</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;</li> <li>• fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;</li> <li>• amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;</li> <li>• kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.</li> </ul> <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidalari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p> |
| 3. | <p><b>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• fiziologik jarayonlarning hayvon yoshi va yil mavsumlariga qarab o'zgarish qonuniyatlari; yosh hayvonlar organizmining o'ziga xos anatomo - fiziologik xususiyatlari; yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tarqalishi, iqtisodiy zarari, asosiy sabablari, rivojlanishi, simptom va sindromlari hamda ertachi tashxisi haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</b></li> <li>• yosh hayvonlar va parrandalarni nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklariga tekshirishda klinik, gematologik va boshqa laborator tekshirishlar o'tkazish va ularning natijalarini ilmiy tahlil qilishni; yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining ilmiy asoslangan davolash va oldini olish usullari bo'yicha ilm-fan yangiliklarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</b></li> <li>• to'liq klinik hamda zamonaviy laborator tekshirishlar o'tkazish orqali yosh hayvonlar va parrandalarning nafas, ovqat hazm qilish va modda almashinuvi buzilishi kasalliklariga to'g'ri tashxis qo'yish; kasal hayvonlardan qon olish, qovuqni katetrlash, sezuvchan nuqtalarga reflektor ta'sir etish va qonni laborator tekshirishlardan o'tkazish; kasal hayvonlarni</li> </ul>           |